
TANIQLI KINOAKTIYORLAR TOSHLOQDA

Toshloq tumanidagi Zarkent MFYda “Yoshlar kinokarvoni” loyihasi doirasida O‘zbekiston Kinomatografiya agentligining taniqli aktyor va aktrisalari Shoxida Uzoqova, Umid Iskandarov, Yigitali Mamajonov, Muqaddas Sadullayeva, Xurshid To‘xtayev va bir qator taniqli san‘atkorlar ishtirokida aholi va yoshlar bilan ijodiy uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

«Kinokarvon» loyihasi aholi tomonidan juda iliq kutib olindi.

Dastlab tadbirda tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev so‘zga chiqib, mamlakatimiz bo‘ylab tashkil etilayotgan ushbu loyiha doirasidagi tadbirlar aholini madaniy xordiq chiqarishiga katta xizmat qilayotganligini aytib o‘tdi. Tadbirda tumandagi umumta‘lim maktablarini namunali tamomlagan 43 nafar bitiruvchi yigit va qizlarga oltin hamda kumush medallar tantanali ravishda topshirildi.

Tadbir davomida mehmonlar so‘zga chiqib, “Yoshlar kinokarvoni” loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan uchrashuvlar hususida hamda yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar borasida alohida to‘xtalib o‘tdilar.

Shuningdek, aholiga yuqori kayfiyat ulashish maqsadida konsert dasturi ham namoyish etildi.

2023-06-13 22:03:15